



**DUNYO AHOLISI VA UNDAGI DEMOGRAFIK JARAYONLAR**

*Tuxtamuratova Dilnoza Dilmurodovna*

*Buxoro davlat Pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dunyo mamlakatlari o'rtasidagi xomashyo importi va eksporti, sanoat ishlab chiqarishining ekologik muhitga ta'siri, global iqlim o'zgarishlari hamda demografik jarayonlarning murakkabligi tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlar sanoat ehtiyojlarini qondirish maqsadida arzon va ko'p miqdordagi xomashyolarni rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilayotgani, dunyo okeani va atmosferaning ifloslanishi, global iqlim isishi va buning natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, aholining tez o'sishi va demografik siyosatning dolzarbligi hamda kelgusida global muammolarni bartaraf etish yo'llari bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Xomashyo importi, global resurs siyosati, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti, sanoat chiqindilari, global ekologik muammolar, atmosfera tarkibi, iqlimning global isishi, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlari, okean ekologiyasi, antropogen omillar, aholi soni va zichligi, resurslardan barqaror foydalanish.

**Abstract:** This article analyzes the import and export of raw materials between countries worldwide, the impact of industrial production on the ecological environment, global climate change, and the complexities of demographic processes. It scientifically examines how developed countries import cheap and abundant raw materials from developing nations to meet their industrial demands, along with the pollution of the world's oceans and atmosphere, global warming, and the resulting environmental issues. Additionally, the article discusses the rapid population growth, the relevance of demographic policies, and potential solutions to future global challenges.

**Keywords:** Raw material import, global resource policy, economy of developed countries, industrial waste, global environmental problems, atmospheric composition,





*global climate warming, demographic policy, urbanization processes, ocean ecology, anthropogenic factors, population size and density, sustainable resource use.*

**Аннотация:** В данной статье анализируются импорт и экспорт сырья между странами мира, влияние промышленного производства на экологическую среду, глобальные изменения климата и сложность демографических процессов. На научной основе рассматривается, как развитые страны для удовлетворения своих промышленных потребностей импортируют дешёвое и большое количество сырья из развивающихся государств, а также загрязнение Мирового океана и атмосферы, глобальное потепление и возникающие в результате этого экологические проблемы. Кроме того, в статье освещаются вопросы быстрого роста численности населения, актуальности демографической политики и пути решения будущих глобальных проблем.

**Ключевые слова:** Импорт сырья, глобальная ресурсная политика, экономика развитых стран, промышленные отходы, глобальные экологические проблемы, состав атмосферы, глобальное потепление климата, демографическая политика, процессы урбанизации, экология океанов, антропогенные факторы, численность и плотность населения, устойчивое использование ресурсов.

XX asr insoniyat tarixida aholi sonining jadal o'sishi bilan ajralib turadi. Bu holat, asosan, tabiiy o'sish ko'rsatkichining yuqoriligi, ya'ni tug'ilish darajasining yuqori, o'lim ko'rsatkichining esa pasayishi natijasida yuzaga keldi. Oxirgi yillarda esa tug'ilish sur'ati biroz sekinlashganini kuzatish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, 1962–1972-yillarda jahon aholisi o'rtacha 2,06 foizga, 1973–1983-yillarda 1,80 foizga o'sgan, keyingi yillarda esa bu ko'rsatkich bosqichma-bosqich kamayib bormoqda. 2022-yilga kelib esa aholi o'sish sur'ati o'rtacha 1,16 foizni tashkil qilgan.

Tarixiy davrlar kesimida aholi sonining ortishini tahlil qilganda, insoniyat 1804-yilda birinchi milliard aholini tashkil qilgan bo'lsa, undan 123 yil o'tib ikkinchi milliardga yetdi. Keyinchalik bu davr qisqarib, 33 yil ichida uchinchi milliardga yetdi. Aholining milliardlab ortish oralig'i tobora qisqargan: uchinchi va to'rtinchi milliard orasida 14 yil, to'rtinchi va beshinchi milliard orasida esa atigi 13 yil farq bo'lgan.





BMT prognozlariga ko'ra, 2050-yilga borib sayyoramiz aholisi 9-12 milliardgacha yetishi, 2100-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 15 milliardga yaqinlashishi mumkin. 2050-yilda dunyo aholisining taxminan yarmi Osiyo qit'asida, 25 foizi Afrikada, 8 foizi Lotin Amerikasi, 7,4 foizi Yevropada va 4,7 foizi Shimoliy Amerikada yashashi kutilmoqda. Aholi sonining kelajakdagi o'zgarishini demograflar ko'plab omillar — tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, tabiiy o'sish, migratsiya jarayonlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar asosida bashorat qiladilar. Jahon aholisining o'sishi va sekinlashuviga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

- hayot darajasining oshishi;
- tibbiyot xizmatlari va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi;
- ayollarning ta'lim va mehnat faoliyatiga faol jalb etilishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi;
- insonlarning ongli ravishda kam farzandli oilani afzal ko'rishi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida demografik o'zgarishlar bosqichma-bosqich rivojlangan mamlakatlarga xos tendensiyalarga moslashmoqda. Bu hududlarda ham farzandlar soni avvalgiga qaraganda qisqarib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda esa aholining tabiiy o'sishi past darajada, ko'proq migratsiya hisobiga aholi soni saqlanib turibdi.

Aholi sonining ortishi esa bir qator global muammolarni yuzaga keltirishi kutilmoqda:

- 1) Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va dengiz boyliklari yetishmovchiligi.
- 2) Aholi zichligi oshishi natijasida atrof-muhitga salbiy ta'sir kuchayishi.
- 3) Rivojlanayotgan davlatlarda energiya resurslari va iste'mol mahsulotlariga talab oshib, yetishmovchilik yuzaga kelishi.
- 4) Ko'pgina mamlakatlarda aholining qarishi, sog'liqni saqlash, pensiya tizimi va boshqa ijtimoiy muammolarni hal qilish zarurati.

Demografiya tarixi olimlar tomonidan ikki asosiy bosqichga ajratiladi. Birinchi davr — XVII asrning ikkinchi yarmigacha davom etib, uni agrar jamiyatlar bosqichi deb atash mumkin. Bu davrda tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, aholi o'sishi juda sust kechgan. Ikkinchi davr — sanoat va ilm-fan taraqqiyoti natijasida 1960-yillarda demografik portlash yuzaga kelgan. Bu davrda o'lim darajasi keskin pasayib, tug'ilish yuqori darajada saqlanib qoldi. Aholi sonining keskin oshishi esa





global ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni yuzaga chiqardi. Bugungi kunda aholi o'rtasida o'lim darajasining pasayishi asosan sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi va zamonaviy tibbiy texnologiyalar, vaksinalarning keng joriy etilishi natijasida yuz bermoqda. So'nggi 70 yil ichida aholining tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Har bir davlatda tug'ilish va tabiiy o'sish sur'atlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va demografik siyosatiga bevosita bog'liq.

Aholi soni va zichligi ortgan hududlarda esa qashshoqlik, infratuzilma muammolari, ekologik xavflar kuchaymoqda. Zamonaviy demografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida tug'ilish darajasi izchil pasayib bormoqda. Hatto Yaqin Sharqdagi neft eksport qiluvchi musulmon mamlakatlarida ham ayollar ko'p farzand ko'rishga intilmayapti. Sababi, bu holat ularning jamiyatdagi mavqei, kasbiy faoliyati va shaxsiy erkinligiga to'sqinlik qilishi mumkin. Ma'lumki, dunyoning Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi kabi rivojlanayotgan mintaqalarida tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish darajalari nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega. Ayniqsa, Afrika mamlakatlari ushbu demografik jarayonlar intensivligi bo'yicha ajralib turadi. Bunga asosan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi, an'anaviy turmush tarzi va agrar xo'jalik yetakchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Aynan agrar jamiyatlarda ko'p farzand ko'rish qadimdan iqtisodiy va ijtimoiy zarurat sifatida shakllangan. Chunki qishloq xo'jaligi ishlarida bolalarning ishtiroki muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, ota-onalar ko'p farzandni qarilik chog'ida iqtisodiy va ma'naviy tayanch deb bilishadi. Shu boisdan, ushbu hududlarda demografik ko'rsatkichlar yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bunga teskari ravishda, sanoatlashgan va ijtimoiy himoya tizimi rivojlangan mamlakatlarda esa kam farzandli oilalar ustunlik qiladi. Sababi, bu mamlakatlarda aholi qariganda davlat tomonidan pensiya va boshqa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi kafolatlangan. Bu holat aholining demografik xatti-harakatlariga ham ta'sir qilib, oilalarda farzand sonini ongli ravishda cheklashga olib kelmoqda. Shu tariqa, demografik jarayonlarning mintaqaviy tafovutlari asosan iqtisodiy taraqqiyot darajasi va ijtimoiy institutlar rivojlanishi bilan bevosita bog'liq ekani kuzatilmoqda.

*1-jadval*





### Dunyo aholi soni dinamikasi

| Yillar | Aholi soni mlrd. kishi |
|--------|------------------------|
| 1804   | 1                      |
| 1927   | 2                      |
| 1960   | 3                      |
| 1974   | 4                      |
| 1987   | 5                      |
| 1999   | 6                      |
| 2011   | 7                      |
| 2016   | 7.3*                   |
| 2025   | 7.8*                   |
| 2050   | 9.8*                   |
| 2100   | 11-12*                 |

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyo aholisi soni tarix davomida juda tez sur'atlarda ortib bormoqda. Xususan, 1804-yilda dunyo aholisi ilk bor 1 milliardga yetgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 123 yil ichida ikki baravarga, ya'ni 2 milliardga yetgan. Oradan atigi 33 yil o'tib, aholi soni yana 1 milliardga oshib, 3 milliardga yetgani kuzatilgan. Aholi soni milliardlar orasidagi oshish davri tobora qisqarib borgan: masalan, 3 milliarddan 4 milliardga o'tish uchun atigi 14 yil, 4 milliarddan 5 milliardga esa 13 yil ketgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) prognozlariga ko'ra, dunyo aholisining ushbu o'sish tendensiyasi yaqin kelajakda ham davom etadi. Xususan, 2025-yilda dunyo aholisi soni 7,8 milliardga, 2050-yilda esa 9,8 milliardga yetishi kutilmoqda. 2100-yilga borib esa dunyo aholisi soni taxminan 11-12 milliard atrofida bo'lishi mumkin. Ko'plab demograflarning fikriga ko'ra, aholi soni 11-12 milliardga yetgandan so'ng, o'sish sur'ati sekinlashadi va ma'lum bir barqarorlik holatiga keladi. Ya'ni, tug'ilish va o'lim darajalari bir-birini qoplashi natijasida tabiiy o'sish deyarli nol darajaga tushadi. Bunday holat, asosan, tug'ilish ko'rsatkichlarining pasayishi va aholining yashash darajasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi ta'kidlanmoqda.

### 2-jadval

### Dunyo aholi sonining regionlar bo'yicha 2025 yildagi bashorati





| Dunyo regionlari          | Aholi soni,<br>mln kishi | Dunyo regionlari       | Aholi soni,<br>mln kishi |
|---------------------------|--------------------------|------------------------|--------------------------|
| Butun dunyo               | 8467                     | Afrika                 | 1440                     |
| Rivojlangan mamlakatlar   | 1220                     | Shimoliy Amerika       | 370                      |
| Rivojlanayotgan davlatlar | 6820                     | Lotin Amerikasi        | 660                      |
| MDH                       | 310                      | Avstraliya va Okeaniya | 40                       |
| Xorijiy Yevropa           | 510                      | Xorijiy Osiyo          | 4710                     |

<https://www.census.gov>. Jadval internet ma'lumotlari asosida tuzildi(2022y).

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, global miqyosda aholi sonining o'sish sur'ati yuqori bo'lib, BMT prognozlariga ko'ra, 2025-yilda jahonda istiqomat qiluvchilar soni 8,5 milliard kishiga yetishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich ichida eng katta ulushni Osiyo mintaqasi egallab, u yerda 4,7 milliarddan ortiq aholi yashashi bashorat qilinmoqda. Aholi sonining ko'pligi bo'yicha ikkinchi o'rinni Afrika qit'asi band etadi. Undan keyingi o'rinlarga esa Lotin Amerikasi, Shimoliy Amerika, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari va Avstraliya mintaqalari joylashadi.

Dunyo aholisining asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi va 2025-yilga borib ushbu davlatlarda 6,8 milliarddan ortiq inson istiqomat qilishi kutilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda esa aholi soni 1,2 milliarddan sal ortiq bo'lishi ehtimol qilinmoqda. Bu demakdirki, kelajakda ham demografik o'sish, asosan, tug'ilish darajasi va tabiiy o'sish yuqori bo'lgan hududlarda kuzatiladi. BMT tomonidan berilgan uzoq muddatli prognozlarga ko'ra, 2050-yilga kelib dunyo aholisining 55 foizi Osiyo qit'asida, 26,5 foizi Afrikada, 7,9 foizi Lotin Amerikasida, 5,2 foizi Yevropada va 3,8 foizi Shimoliy Amerikada istiqomat qilishi kutilmoqda. Demografik rivojlanishning bu kabi mintaqaviy farqlari global iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Shuningdek, 2025-yilda dunyoning aholisi eng ko'p bo'lgan 20 ta yirik davlatlari ichida Xitoy an'anaviy ravishda yetakchilikni saqlab qoladi va unda aholi soni 1 milliard 455 million kishiga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa dunyo demografik tuzilmasida Osiyo mintaqasining yetakchi mavqeyini mustahkamlashini ko'rsatadi.

*3-jadval*





### Dunyoning 20 ta mamlakatida 2025-yilda aholi soni bashorati

| Mamlakatlar | Aholi soni, mln kishi | Mamlakatlar | Aholi soni, mln kishi |
|-------------|-----------------------|-------------|-----------------------|
| Xitoy       | 14 55                 | Yaponiya    | 120                   |
| Hindiston   | 1363                  | Efiopiya    | 115                   |
| AQSH        | 351                   | Vetnam      | 110                   |
| Indoneziya  | 281                   | Filippin    | 110                   |
| Pokiston    | 250                   | Kongo       | 105                   |
| Braziliya   | 211                   | Yeron       | 95                    |
| Bangladesh  | 208                   | Misr        | 95                    |
| Negeriya    | 206                   | Turkiya     | 88                    |
| Rossiya     | 137                   | GFR         | 80                    |
| Meksika     | 133                   | Tayland     | 73                    |

<https://www.census.gov>. Jadval internet ma'lumotlari asosida tuzildi.

2025-yilga kelib, aholi soni bo'yicha dunyodagi eng yirik mamlakatlar orasida Xitoydan keyingi o'rinni Hindiston egallaydi. Prognozlarga ko'ra, bu davrga kelib Hindiston aholisining umumiy soni 1 milliard 363 million kishiga yetishi kutilmoqda. Ko'pgina davlatlarda aholi sonining ortishi asosan yuqori tug'ilish ko'rsatkichi va tabiiy o'sish hisobiga yuz bermoqda. Shu bilan birga, dunyoning yirik mamlakatlari orasida AQSH, Rossiya va Germaniya kabi ba'zi rivojlangan davlatlarda demografik o'sish, asosan, migratsiya jarayonlari — ya'ni aholining mexanik harakati hisobiga amalga oshmoqda. Ushbu davlatlarda tug'ilish darajasining nisbatan pastligi, aholi tarkibining qarib borayotgani va migratsiyaning aholi soniga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani kuzatilmoqda. Natijada, bu davlatlarda demografik barqarorlikni ta'minlashda ichki omillar bilan bir qatorda tashqi demografik oqim ham muhim rol o'ynamoqda.

2025-yilda dunyo aholisi soni 8,5 milliard kishiga yetishi kutilmoqda. Shundan eng katta qismi — 4,7 milliarddan ortig'i Osiyo mamlakatlariga to'g'ri keladi. Aholi soni bo'yicha ikkinchi o'rinda Afrika, so'ngra Lotin Amerikasi, Shimoliy Amerika va MDH davlatlari turadi. Avstraliya esa eng kam aholi yashovchi qit'a hisoblanadi. Umuman olganda, dunyo aholisining asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Bu hududlarda taxminan 6,8 milliard kishi istiqomat qilmoqda. Rivojlangan davlatlarda esa bu raqam atigi 1,2 milliard kishidan biroz ortiq.





BMT prognozlariga ko'ra, 2050-yilga borib dunyo aholisining 55 foizi Osiyo, 26,5 foizi Afrika, 7,9 foizi Lotin Amerikasi, 5,2 foizi Yevropa va 3,8 foizi Shimoliy Amerikada yashaydi. Jahonning 2025-yilda aholi soni bo'yicha 20 ta yirik davlatlari orasida birinchi o'rinni Xitoy egallaydi (1,455 mlrd kishi), undan keyin Hindiston (1,363 mlrd kishi) qayd etiladi. Ba'zi rivojlangan mamlakatlarda esa aholi sonining o'sishi asosan migratsiya hisobiga ro'y bermoqda. Masalan, AQSH, Rossiya va Germaniyada tabiiy o'sish past bo'lgani uchun aholining ko'payishi mexanik harakat (immigratsiya) evaziga ta'minlanmoqda. Jadvaldagi 20 ta mamlakatning 11 tasi Osiyoda joylashgan bo'lib, bu hududlarda tug'ilish darajasi yuqoriligi sababli tarixan aholi zich yashab kelgan. Mazkur mamlakatlar orasida Germaniya va Tailand nisbatan past aholi soniga ega. 1965-1970-yillardan 1980-1995-yillarga kelib, dunyo bo'yicha aholi o'sish sur'ati pasaygan, 2020-2025-yillarda esa bu ko'rsatkich yanada sekinlashishi kutilmoqda. Tug'ilish darajasining izchil kamayib borishi global demografik jarayonlarga ta'sir etmoqda. Masalan, 1965-1970-yillarda dunyo aholisi yillik 2,06 foizga oshgan bo'lsa, 1980-1995-yillarda bu ko'rsatkich 1,74 foizga, 2020-2025-yillarda esa 0,99 foizga tushishi prognoz qilinmoqda. Shunga qaramay, Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyoda aholi o'sish sur'ati nisbatan yuqoriligicha qolmoqda, biroq bu hududlarda ham tug'ilish darajasining pasayishi kutilmoqda. Yevropa esa eng past demografik o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib, 2020-2025-yillarda yillik 0,05 foiz o'sish bashorat qilinmoqda. Olimlar Yu.N. Gladkiy va S.P. Lavrov asarlarida ta'kidlanishicha, insoniyat bugungi kunda qator global muammolarga duch kelmoqda: demografik, oziq-ovqat, energetika, xom ashyo taqchilligi, ekologiya, etnik ziddiyatlar, sog'liq va umr ko'rish darajasining pasayishi kabilar shular jumlasidandir. Demografik barqarorlikni ta'minlash maqsadida, rivojlangan mamlakatlarda oilaviy siyosatga katta e'tibor qaratilmoqda. Aholi sonining yetarli darajada o'sishi uchun har bir ayol kamida uch farzand tug'ishi kerakligi qayd etiladi. Bugungi kunda esa rivojlangan davlatlarda ayollarning bandligi va hayot sifati oshgani sababli ular 1-2 farzandli bo'lishni afzal ko'rmoqda. Shu sababli bu davlatlarda demografik siyosatni kuchaytirish, homiladorlik ta'tilini uzaytirish, bolalar nafaqasini oshirish, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash kabi chora-tadbirlar ko'rilmogda.

#### *4-jadval*

#### **Dunyo regionlarida aholining o'sish darajasi (% hisobida )**





| Yillar     | Dunyo | Afrika | Lotin Amerika | Shimoliy Amerika | Osiyo | Yevropa | Okeaniya | Sobiq Ittifoq |
|------------|-------|--------|---------------|------------------|-------|---------|----------|---------------|
| 1965 -1970 | 2.06  | 2.64   | 2.60          | 1.13             | 2.44  | 0.66    | 1.97     | 1             |
| 1980-1985  | 1.74  | 2.99   | 2.06          | 0.82             | 1.82  | 0.25    | 1.48     | 0.78          |
| 2020-2025  | 0.99  | 1.90   | 1.12          | 0.34             | 0.89  | 0.05    | 0.76     | 0.47          |

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bunday siyosat boshqa yo‘nalishda olib boriladi. Tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lishiga qaramay, kelgusida bu ko‘rsatkich pasayishi prognoz qilinmoqda. Hozirgi kunda bu mamlakatlarda aholining ko‘pchiligi tug‘ilishni cheklash usullaridan foydalanmaydi yoki ularni sotib olish imkoniga ega emas. Shuningdek, bu davlatlarda turmush qurish yoshini oshirish maqsadga muvofiq ekani ta’kidlanmoqda.

Demografik siyosatga Xitoy davlatining misoli e’tiborga loyiq. Mamlakatda nikoh yoshi oshirilgan va har oilaga bitta farzand siyosati joriy etilgan edi. Shunga qaramay, Xitoy hali ham dunyodagi eng ko‘p aholiga ega davlat hisoblanadi. BMT prognozlariga ko‘ra, 2050-yilgacha Hindiston aholisi soni bo‘yicha Xitoyni ortda qoldiradi. Yana bir muammo — aholining qarishi jarayoni. Masalan, Yaponiyada 1990-yilda aholining 12 foizi 65 yosh va undan katta bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 27,3 foizga yetishi kutilmoqda. Aholining qarishi Germaniya, Italiya, Fransiya kabi mamlakatlarda ham davom etmoqda. Shuningdek, global oziq-ovqat muammosi ham dolzarb masala. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi sonining tez o‘sishi oziq-ovqat ishlab chiqarish sur‘atlaridan oshib ketmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 500 million kishi ochlikdan, 1 milliard kishi esa oziq-ovqat taqchilligidan aziyat chekmoqda. Shuning uchun har bir inson sog‘lom bo‘lishi uchun turli xil oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol qilishi lozim.

Energetika sohasida esa dunyo hozirgi vaqtda ko‘mir, gaz va neft resurslarini keng miqyosda iste’mol qilmoqda. Ammo bu resurslarning tugab borishi va ekologik muammolarni keltirib chiqarishi olimlarni tashvishga solmoqda. Shu sababli quyosh, shamol va suv kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish dolzarb





hisoblanadi. Xom ashyo muammosi ham global muammo bo‘lib, resurslarni tejamkor ishlatish va ularni qayta ishlab, yuqori qiymatli mahsulot tayyorlash iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Masalan, Singapur misolida ko‘rish mumkinki, tabiiy boyliklarga ega bo‘lmasdan ham, sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali yuqori iqtisodiy darajaga erishish mumkin. Shu sababli, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mamlakatimizda ishlab chiqarishni rivojlantirish, sanoat korxonalarini ko‘paytirish, xom ashyoni qayta ishlash va aholini ish bilan ta’minlash strategik vazifa bo‘lib qolmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda import hajmi yuqori bo‘ladi. Chunki ular o‘zlarida mavjud xomashyodan foydalanish o‘rniga, rivojlanayotgan mamlakatlardan arzon narxda sotib olib, o‘z resurslarini zaxirada saqlab qolishni ma’qul ko‘radi. Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, AQSH, Yaponiya va boshqa sanoati rivojlangan davlatlar ishlab chiqarishning yuqori darajasiga ega bo‘lgani uchun ko‘p miqdorda xomashyo import qiladi. Ularni qayta ishlab, keraklisini o‘z ehtiyojlari uchun qoldirib, qolganini eksport qiladi.

*5-jadval*

**Mamlakatlarning import qilish salmog‘i (%)\***

| Metall       | AQSH | MDH mamlakatlari | Yaponiya | Yevropa Ittifoqi mamlakatlari |
|--------------|------|------------------|----------|-------------------------------|
| Temir rudasi | 36   | 0                | 99       | 90                            |
| Boksit       | 88   | 38               | 100      | 86                            |
| Mis          | 7    | 0                | 99       | 99                            |
| Qo‘rg‘oshin  | 85   | 0                | 73       | 74                            |
| Rux          | 53   | 0                | 53       | 81                            |
| Qalay        | 72   | 24               | 86       | 92                            |
| Oltin        | 43   | 0                | 96       | 99                            |
| Kumush       | 59   | 0                | 58       | 93                            |
| Platina      | 85   | 0                | 88       | 100                           |
| Marganes     | 99   | 0                | 97       | 99                            |
| Nikel        | 75   | 0                | 100      | 100                           |
| Xrom         | 88   | 0                | 99       | 97                            |
| Volfram      | 48   | -                | 68       | 100                           |





|        |    |   |    |    |
|--------|----|---|----|----|
| Kobolt | 94 | - | 98 | 98 |
|--------|----|---|----|----|

\*Manba: Ю.Н. Гладкий. Глобальная география. - М., 2001г, ст.199.

5-jadval ma'lumotlariga ko'ra, AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari MDH mamlakatlariga nisbatan ko'proq xomashyo import qiladi. Masalan, Yaponiya temir rudasi, boksit, mis, oltin, nikel, xrom va kobaltni to'liq import qiladi. AQSH esa marganes, xrom, kobalt, platina, qo'rg'oshin va boksit kabi resurslarni katta hajmda tashqi bozordan oladi. MDH mamlakatlari orasida esa ayrimlari boksit va kobalt import qiladi.

Dunyo okeani va ekologik muammolar: Dunyo okeanidan foydalanish insoniyat tarixida qadimdan boshlangan. Xristofor Kolumb, Fernando Magellan kabi sayyohlar yangi yerlarni kashf qilgan. Hozirgi kunda esa dunyo okeani global ekologik muammolardan biriga aylangan. Sanoat korxonalarini chiqindilari, rekreatsion zonalar, portlar, tabiiy resurslarni qazib olish va dengiz transporti faoliyati natijasida okean suvlarining ifloslanishi jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Urbanizatsiya va shaharlar muammosi: Shaharlar, aglomeratsiyalar va megalopolislarga aholining ko'chib kelishi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda: transport tirbandliklari, suv ta'minoti muammosi, ekologiya buzilishi, aholining zichligi oshishi, insonlarning tabiatdan uzoqlashishi, shovqin va stress holatlarining ko'payishi. Buning oqibatida odamlarning asab tizimi zaiflashmoqda, ishsizlik, jinoyatchilik, giyohvandlik va alkogolizm, avariylar soni ortmoqda.

Atmosfera va global isish; Atmosfera — sayyoramizni zararli kosmik nurlanish va ultrabinafsha nurlaridan asraydigan havo qobig'idir. Uning tarkibi azot (78,09%), kislorod (20,95%), argon (0,93%) hamda uglerod oksidi va boshqa gazlardan iborat. Ammo inson faoliyati natijasida atmosferaga sanoat korxonalarini va avtomobillardan turli kimyoviy zaharli moddalar chiqarilmoqda. Bu moddalar yog'ingarchilik orqali tuproqqa tushib, o'simliklar va inson organizmiga o'tadi. Natijada ekologik muammolar kuchayib, atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosfera ifloslanmoqda. Bu esa inson salomatligi va iqlimga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, so'nggi yillarda kuz kelmasidan ba'zi daraxtlar bargi sarg'ayishi, odamlar orasida kasalliklarning ko'payishi, chaqaloqlar orasida tug'ma kasalliklar va allergiya ko'payib bormoqda.

Aholi sonining ortishi va demografik muammolar. Yer yuzida aholi soni tez sur'atlar bilan oshib bormoqda. Bugungi kunda dunyo aholisi 8 milliarddan oshdi.





BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilda bu raqam 12 milliardga yetishi mumkin. Aholi soni oshgani sari oziq-ovqat, energetika, xomashyo, urbanizatsiya, demografiya, millatlararo munosabat va boshqa global muammolar ham kuchaymoqda. Rivojlangan mamlakatlarda aholining qarishi kuzatilmoqda. Agar bu holat davom etsa, ushbu davlatlar asosiy ishchi kuchidan mahrum bo'lishi mumkin. Shuning uchun ular demografik siyosat yuritib, tug'ilish darajasini oshirish ustida ish olib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa aholi sonining haddan ortiq o'sishini cheklash va iqtisodiy o'sishni muvozanatli ta'minlash uchun demografik siyosat zarur. Aholi va iqtisodiyot o'sishi muvofiq bo'lsa, global muammolar sezilarli darajada kamayadi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy, ekologik va demografik muammolar globallashtirib bormoqda. Rivojlangan davlatlar ishlab chiqarish salohiyatining yuqoriligi sababli ko'plab xomashyo turlarini tashqi bozordan import qilmoqda. Shu bilan birga, sanoat korxonalarini va transport vositalarini faoliyati natijasida atmosfera, suv va tuproq qatlamlari jiddiy ifloslanmoqda. Bu esa global iqlim isishi, suv sathi ko'tarilishi va biosferada salbiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Aholi sonining keskin o'sishi esa oziq-ovqat, energetika, xomashyo va ekologiya muammolarini yanada kuchaytirmoqda. Rivojlangan mamlakatlar demografik qarish muammosiga duch kelayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa ortiqcha aholi zichligi va urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy izchil rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, global ekologik muammolarni bartaraf etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va demografik muvozanatni ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013. – 307 с.
2. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
3. Bo'riyeva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
4. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. – М.: 1999. – 124 с.
5. 2014 World Population Data Sheet of the Population Reference Bureau.
6. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. - Т., 2009.
7. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. T., 2002.





8. Soliev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi).-T.: 2009.
9. Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari.-T.: 2008.

